

---

## O'ZA: Farg'ona shahridagi ma'nan eskirgan uylar qonun doirasida buzilmoqdam?

Ayni kunlarda Farg'ona shahrining Alisher Navoiy ko'chasida joylashgan 2 qavatli ma'nan eskirgan ayrim uylar va noturar bino-inshootlar buzilmoqda. Bu haqda ayrim ijtimoiy tarmoqlarda aniq dalillarga asoslanmagan, uydirmadan iborat xabarlar ham paydo bo'ldi. Xo'sh, aslida qanday, uylar qonun doirasida buzilmoqdam?

2011 yilda Farg'ona viloyati markazida aniq hisob-kitob, puxta va mukammal loyihalar, zamonaviy shaharsozlik me'morchiligi an'analari asosida bunyodkorlik ishlari boshlanganida ba'zi og'ziga kuchi yetmaganlar ham uchragan edi. "Hammayoqni buzib tashlashdi, shahar chang-to'zon ichida qoldi...", "O'h-ho', bunday ulkan ishlarni amalga oshirish uchun qancha mablag', kuch-quvvat kerak!.." qabilida "qo'shtirnoq" ichida gap tarqatganlar ham bo'ldi. Bugun ular o'sha gaplaridan xijolat chekayotgan bo'lsa ajab emas. Farg'ona ko'rkam, zamonaviy shaharga aylanib bormoqda. Uni shaharsozlik norma va qoidalari asosida qayta qurish bugun ham davom etmoqda.

Unga ko'ra, shahar hokimining 2019 yil 8 yanvardagi qaroriga asosan Farg'ona shahar A.Navoiy, S.Temur va Forobiy ko'chalari kesishmasida joylashgan 2 qavatli ma'nan eskirgan ayrim turar va noturar bino-inshootlarni buzish, ularning o'rniga pardozeb qurilish materiallaridan foydalangan holda zamonaviy loyihalar asosida yangi inshootlar qurish rejalashtirilgan.

Xo'sh, buzilayotgan uylar yashash xavfsizligiga javob berarmidi? Aslida ular 1946-1947 yillarda qurilgan bo'lib, aksariyati xom g'ishtdan, temir beton bog'lamalarsiz qurilgan, xonadon egalari qayta ta'mirlagan chog'ida esa arxitektura talablari chetlab o'tilgan uylar edi.

- Ochig'i, bir xonali eski uyimga mehmon chaqirishga ham uyalardik, qancha ta'mirlamaylik, devorlari har joy-har joyidan yorilib ketaverar edi. Kulgili bo'lsa ham aytay, kimyoviy ishlov bersak-da, xonadonlar orasidan o'ziga yo'l ochgan suvaraklarga qarshi kurashish mushkul edi. Hozir esa men va menga o'xshagan 72 oilaga qulay loyihada, yangi qurilgan ko'p qavatli uylardan xonadonlar berildi, - deydi Dilfuza Azimova. - Shundoqqina yonimizda turli do'konlar, sport maydonchalari, hatto futbol maktabi ham bor. Bolalar bog'chasi esa tez kunda bitadi. Havosini aytmaysizmi? Uyimiz qarshisida bir necha o'n geklarda archazor yaratilgan bo'lib, ayniqsa, ertalab sayr qilib to'ymaysan kishi.

Shuning guvohi bo'ldikki, berilgan yangi uylar buzilishga tushgan eski uylarga nisbatan yashash maydoni katta. Misol uchun 2 xonali 53 kv.m bo'lgan eski uy o'rniga yangi 3 xonali 70 kv.m bo'lgan yangi uylar ajratib berilgan.

Amaldagi qonunchilik asosida Farg'ona shahar hokimi mazkur uylar buzilishi haqida aholiga bir necha oy avval yozma ravishda ogohlantirish xati va amalga oshiriladigan obodonchilik ishlari haqida tushuntirish bergan.

- Aholini rozi qilish biz, rahbarlarning asosiy vazifamiz, - deydi Farg'ona shahar hokimi Hamidjon Habibiddinov. - Shuning uchun ham ma'nan eskirgan uyi buzilayotgan xonadonlarda yashovchilarning barcha istak-takliflarini inobatga olmoqdamiz. Ko'chirish ishlarini qonun talablari asosida qilyapmiz. Ularga taklif etilayotgan Registon ko'chasidagi ko'p qavatli uylar Farg'ona shahar xalqa yo'lida joylashgan bo'lib, barcha sharoitlar bor.

"Kambag'al bo'lsang, ko'chib ko'r" degan naql bor. Shuning uchun ham shahar hokimligi aholini yangi uylarga ko'chirishda amaliy yordam bermoqda. Yuk mashinalari ajratilgan, quruvchilar va ko'ngillilar ularning uy jihozlarini tashishda ko'maklashmoqda.

Ayrim saytlarda uyi buzilishga tushgan Viktor Aristov bu tashvishni ko'tarolmay, insult bo'lib, vafot etdi degan xabarlar ham berildi. 1974 yilda tug'ilgan V.Aristov 18 yanvar kuni sog'ligi yomonlashgani sababli Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialiga yotqizilib, unga bosh miya qon aylanishining o'tkir buzilishi tashxisi qo'yilgan va ko'rsatilgan tibbiy muolajalarga qaramay, 19 yanvar kuni vafot etgan. Potologoanotomik tekshiruv xulosasiga ko'ra, uning o'limiga surunkali bosh miya qon aylanishining o'tkir buzilishi sabab bo'lgani aniqlangan.

---

~~Fuqaro Viktor Aristov vafot etguniga qadar Farg'ona shahar A.Navoiy ko'chasi 32-uy 7-xonadonda yashagan. Unga Registon ko'chasidagi yangi qurilgan uydan 3 xonali, yashash maydoni 70 kv.metr bo'lgan xonadon ajratilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, V.Aristov 2014 yilda Jinoyat kodeksining 118, 119, 164-moddalari bo'yicha sudlangan, lekin uni amnistiya aktiga asosan jazodan ozod qilishda sud yurak xuruji tashxisi bilan bemorligini ham inobatga olgan.~~

1 / 2

---

Ma'lumotlarga qaraganda, buziladigan eski uylardan bo'shaydigan maydonga qariyb 100 million AQSH dollari miqdorida investitsiya yo'naltiriladi va bu yerda osmono'par zamonaviy binolar qad rostlaydi.

**Ma'sudjon Sulaymonov**

2019-01-24 15:25:18